

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Do'simov Shohruh

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 5-10

FILOLOGIYA FANLARI

Zayniddinova Sevinch

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI 11-14

Pulatova Asal

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI
IFODALOVCHI KONSEPTLAR 15-18

Burxonova Gulmira

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI 19-23

Nosirova Shoiraxon

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI 24-28

Султонова Лолахон

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") 29-33

YURIDIK FANLAR

Kalimbetov Nesip

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI 34-38

PEDAGOGIKA FANLARI

Tojiboyeva Shohistaxon

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI
RIVOJLANTIRISH MODEL I 39-41

Баймуратова Ирина

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ 42-44

Zokirova Ma'suma

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI 45-49

Maxkamova Husnida

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI' TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI 50-54

Qo'chqarov Bahodir

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 55-60

Adasheva Xilola

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI 61-66

Abduqahhorova Mahliyo

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI 67-70

IQTISODIYOT FANLARI

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Do'simov Shohruh

Email: shohruhdo22@gmail.com

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqa iqtisodiy rivojlanishida tashqi savdoning tutgan o'rne va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida Xorazm viloyatining tashqi savdo faoliyati, eksport-import operatsiyalarining dinamikasi hamda ularning hudud iqtisodiy o'sishiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, viloyatda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, eksport hajmining ortishi va investitsiya jarayonlarining faollashuvi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, eksport, import, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, investitsiya, eksport salohiyati, Xorazm viloyati.

THE IMPORTANCE OF FOREIGN TRADE IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGION (ON THE EXAMPLE OF KHOREZM REGION)

Dusimov Shohruh

Independent researcher

Annotation. This article scientifically analyzes the role and importance of foreign trade in the economic development of the region. In the course of the research, the dynamics of foreign trade activities of the Khorezm region, export-import operations and their impact on the economic growth of the region were studied. Also, the interrelationships between the growth rates of foreign trade turnover in the region, the increase in export volumes and the activation of investment processes were analyzed.

Key words: foreign trade, export, import, regional economy, economic growth, investment, export potential, Khorezm region.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n01>

Kirish

Bugungi kunda global iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda tashqi savdo mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tashqi savdo orqali hududlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishib, o'z ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda tashqi savdo aloqalarining ahamiyati ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim hisoblanadi. Chunki eksport hajmining ortishi milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini ko'paytiradi, yangi investitsiyalarni jalb etadi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasiga xizmat qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatda eksportni rag'batlantirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va hududlarning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotida hududlar muhim o'rin egallaydi. Har bir viloyat o'zining tabiiy resurslari, ishlab chiqarish salohiyati va iqtisodiy ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi. Shu nuqtai

nazardan, Xorazm viloyati ham O'zbekiston iqtisodiyotida muhim hududlardan biri hisoblanadi.

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik hamda xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan hududlardan biri bo'lib, tashqi savdo aloqalarining rivojlanishi viloyat iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur tezisning asosiy maqsadi Xorazm viloyati misolida tashqi savdoning mintaqa iqtisodiy rivojlanishidagi rolini o'rganish hamda eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Tashqi savdoning nazariy asoslari

Tashqi savdo mamlakatlar o'rtasidagi tovarlar va xizmatlar almashinuvi jarayonini ifodalaydi. Iqtisodiy nazariyalarda tashqi savdoning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Klassik iqtisodchilar, jumladan Adam Smit va David Rikardo tashqi savdoning iqtisodiy samaradorligini izohlab berganlar. Adam Smitning mutlaq ustunlik nazariyasiga ko'ra, har bir mamlakat o'zida samaraliroq ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksport qilishi lozim. David Rikardo esa nisbiy ustunlik nazariyasini ilgari surib, mamlakatlar o'zlarida nisbatan arzon ishlab chiqariladigan mahsulotlarga ixtisoslashishi zarurligini ta'kidlagan.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda tashqi savdo iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida qaraladi. Eksport hajmining ortishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga, texnologik yangilanishga hamda mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tashqi savdo orqali mamlakatlar o'z resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Import esa yangi texnologiyalar, uskunalar va innovatsiyalarni jalb qilish imkonini yaratadi.

Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan tashqi savdo hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga quyidagi yo'llar orqali ta'sir ko'rsatadi:

- ishlab chiqarish hajmining ortishi
- yangi ish o'rinlarining yaratilishi
- investitsiyalarning ko'payishi
- texnologik modernizatsiya jarayonining tezlashishi
- hududiy raqobatbardoshlikning oshishi

Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati

Xorazm viloyati O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, iqtisodiy jihatdan muhim hududlardan biri hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlari tashkil etadi. Viloyatda paxta yetishtirish, g'alla yetishtirish, bog'dorchilik hamda sabzavotchilik keng rivojlangan. Shuningdek, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik va qurilish materiallari ishlab chiqarish ham muhim iqtisodiy tarmoqlar hisoblanadi. So'nggi yillarda viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi. Yangi sanoat korxonalari tashkil etilishi hamda mavjud korxonalarining modernizatsiya qilinishi natijasida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish kengaymoqda. Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ham muhim rol o'ynaydi. Viloyatda faoliyat yuritayotgan ko'plab kichik korxonalar eksport faoliyati bilan shug'ullanmoqda.

Xorazm viloyatida tashqi savdo rivojlanishi

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Eksport tarkibida asosan quyidagi mahsulotlar muhim o'rin egallaydi:

- to'qimachilik mahsulotlari

- paxta tolasi
- oziq-ovqat mahsulotlari
- meva-sabzavot mahsulotlari
- qurilish materiallari


Import tarkibida esa asosan texnologik uskunalar, sanoat jihozlari hamda xomashyo mahsulotlari ustunlik qiladi.

Tashqi savdo aloqalarining kengayishi viloyatda ishlab chiqarish hajmining ortishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, eksport faoliyati mahalliy korxonalarni xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishga undamoqda. Quyida berilgan 1-jadvalda biz xorazm viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'rishimiz mumkin. 2010–2025 yillar oralig'ida Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishi turli makroiqtisodiy omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, tashqi savdo faoliyati, investitsiyalar oqimi hamda eksport hajmining o'zgarishi hudud iqtisodiy dinamikasida muhim rol o'ynagan. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mazkur davr mobaynida tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'atlari ancha o'zgaruvchan bo'lib, ayrim yillarda keskin o'sish, ayrim yillarda esa pasayish kuzatilgan.

2013–2014 yillarda tashqi savdo ko'rsatkichlari nisbatan barqarorlashib, 120,4% va 102,4% darajasida shakllangan. Biroq 2015 yilda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati 69,2% gacha kamaygan. Bu holat xalqaro bozor sharoitlarining murakkablashuvi hamda ayrim eksport mahsulotlariga bo'lgan talabning pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda, ayniqsa 2019 yilda tashqi savdo aylanmasi keskin oshib, 205,0% ni tashkil etgan. Bu davrda eksport faoliyatining sezilarli kengayishi, yangi tashqi bozorlarning o'zlashtirilishi hamda logistika infratuzilmasining rivojlanishi muhim rol o'ynagan. Biroq 2020 yilda pandemiya sharoiti tufayli tashqi savdo faoliyatida ma'lum darajada pasayish kuzatilib, o'sish sur'ati 84,1% ni tashkil etgan. 2021–2023 yillarda tashqi savdo faoliyati yana tiklanib, 110,2%, 152,2% va 111,9% darajasida o'sish kuzatilgan. Bu esa pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari bilan bog'liq. 2024–2025 yillarda esa tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati nisbatan barqarorlashib, 108,2% va 91,7% darajasida shakllangan.

Yalpi hududiy mahsulot (YHM) o'sish sur'atlari ham viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2010–2025 yillar davomida YHM o'sish sur'ati asosan 104–110% oralig'ida shakllangan. Bu esa hudud iqtisodiyotida barqaror o'sish jarayonlari mavjudligini anglatadi. Ayniqsa 2013 yilda YHM o'sish sur'ati 109,7%, 2015 yilda 109,0%, 2021 yilda esa 110,1% ni tashkil etib, iqtisodiy faollikning sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

1-jadval. Xorazm viloyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.



Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasi.

Hudud iqtisodiy rivojlanishida asosiy kapitalga investitsiyalar ham muhim rol o'ynaydi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2013 yillarda investitsiyalar o'sish sur'ati yuqori darajada bo'lib, mos ravishda 133,8%, 134,5%, 114,9% va 137,3% ni tashkil etgan. Bu davrda viloyatda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish bo'yicha faol ishlar olib borilgan. 2019 yilda investitsiyalar o'sish sur'ati 150,7% ga yetib, eng yuqori ko'rsatkichlardan birini qayd etgan. Bu esa viloyatda yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilganini ko'rsatadi. 2021 yilda ham investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, 139,3% ni tashkil etgan. 2025 yilga kelib investitsiyalar o'sish sur'ati 134,9% ga yetgani hududda investitsion faollikning davom etayotganini anglatadi.

Tashqi savdoning mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri

Tashqi savdo viloyat iqtisodiyotiga bir nechta yo'nalishlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, eksport hajmining ortishi viloyat iqtisodiyotiga valyuta tushumlarini ko'paytiradi. Bu esa yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim moliyaviy manba hisoblanadi.

Ikkinchidan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Natijada aholi bandligi oshadi.

Uchinchidan, tashqi savdo texnologik modernizatsiya jarayonini rag'batlantiradi. Mahalliy korxonalar xalqaro bozor talablariga mos mahsulot ishlab chiqarish uchun yangi texnologiyalarni joriy etishga majbur bo'ladi.

To'rtinchidan, tashqi savdo hududning investitsion jozibadorligini oshiradi. Eksport salohiyati yuqori bo'lgan hududlarga xorijiy investorlar ko'proq qiziqish bildiradi.

Xorazm viloyatining eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari

Viloyatning eksport salohiyatini oshirish hudud iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Eksport hajmining ortishi nafaqat tashqi savdo aylanmasining kengayishiga, balki mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga hamda hududga investitsiyalar jalb qilinishiga xizmat qiladi. Shu sababli viloyatning eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun kompleks va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ko'plab hududlarda eksport tarkibining asosiy qismini xomashyo yoki kam qayta ishlangan mahsulotlar tashkil etadi. Bunday mahsulotlar esa xalqaro bozorlarda nisbatan past narxlarda sotiladi va iqtisodiyotga kutilgan darajada yuqori daromad keltirmaydi. Shu sababli ishlab chiqarishda chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, tayyor mahsulotlar ulushini oshirish hamda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish zarur. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini ko'paytirish orqali eksport tarkibini diversifikatsiya qilish mumkin. Bu esa viloyatning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Ikkinchidan, logistika infratuzilmasini rivojlantirish eksport faoliyatini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Mahsulotlarni tashqi bozorlarga tez va samarali yetkazib berish eksport hajmining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli transport tizimini takomillashtirish, zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish, saqlash va qadoqlash infratuzilmasini

rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, bojxona jarayonlarini soddalashtirish hamda eksport-import operatsiyalarini raqamlashtirish orqali tashqi savdo jarayonlarini yanada samarali tashkil etish mumkin. Bu esa mahsulotlarni eksport qilish jarayonida yuzaga keladigan vaqt va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Uchinchidan, eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar ko'pincha ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadilar. Shu sababli eksportchi korxonalariga imtiyozli kreditlar ajratish, soliq va bojxona imtiyozlari berish hamda eksportni sug'urtalash tizimini rivojlantirish zarur. Bunday qo'llab-quvvatlash choralari korxonalarini tashqi bozorlarga faolroq chiqishga undaydi hamda eksport hajmining ortishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, viloyatning eksport salohiyatini oshirish yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro marketing faoliyatini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga hamda viloyatning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tashqi savdo mintaqa iqtisodiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda tashqi savdoning o'rnini beqiyosdir. Tashqi savdo orqali hududlar nafaqat o'z mahsulotlarini xalqaro bozorlarga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi, balki zamonaviy texnologiyalar, investitsiyalar va innovatsion tajribalarni jalb qilish imkoniyatini ham qo'lga kiritadi. Shu sababli tashqi savdo faoliyatining rivojlanishi hudud iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatda eksport hajmining ortishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirgan. Bu esa mahalliy korxonalarini mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda yangi texnologiyalarni joriy etishga undamoqda. Natijada hudud iqtisodiyotida ishlab chiqarish samaradorligi ortib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaymoqda.

Xorazm viloyatida tashqi savdo faoliyatining rivojlanishi investitsiya jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Eksport salohiyatining ortishi hududga xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimini jalb qilishga xizmat qilmoqda. Investitsiyalarning ko'payishi esa sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda hudud infratuzilmasini rivojlantirish imkonini bermoqda. Bu jarayonlar esa viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ham ko'rsatadiki, tashqi savdo faoliyati hudud iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishi sanoat tarmoqlarining kengayishiga, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishiga hamda iqtisodiyotning diversifikatsiya

qilinishiga xizmat qilmoqda. Bu esa hudud iqtisodiyotining tashqi iqtisodiy omillarga nisbatan barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Umuman olganda, tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Eksport hajmining ortishi, investitsiya faolligining kuchayishi hamda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, eksportni rag'batlantirish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish hudud iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

Natijada tashqi savdoning samarali rivojlanishi nafaqat Xorazm viloyati iqtisodiy rivojlanishiga, balki butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tashqi savdo salohiyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni izchil davom ettirish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha statistik to'plamlar. – Toshkent, 2010–2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.
5. Rasulov A., Xolmatov T. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
6. Vaxobov A., Tadjibayeva D., Xajibakiev Sh. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Baktria Press, 2020.
7. Internet manbalar (O'zbek saytlar):
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026)". – <https://president.uz>, 06.03.2026 y. kirildi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy farmonlari bo'limi. "Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari". – <https://president.uz/uz/laws>, 01.03.2026 y. kirildi.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha statistik ma'lumotlar". – <https://stat.uz>, 10.03.2026 y. kirildi.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.